

## INGLIZ TILINI O`QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR

**Abdusaminova Shoiraxon Xasanjon qizi**

*Farg`ona davlat universiteti 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada til va uni o`rganishda foydalaniladigan zamonaviy va innovatsion ta`lim texnologiyalari haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so`zlar:** *zamonaviy texnologiyalar, innovatsiya, internet, kompyuter, chet tili, qiziqish, samardorlik.*

Ma`lumki hozirgi kunda o`qituvchilardan til o`rgatishda juda ham yuqori malaka talab etilyapti. Zamonaviy texnologiyalar kirib kelishi bilan ingliz tilini o`rganish va o`rgatish jarayoni ancha yaxshi tomonga o`zgardi. Darslar davomida o`qituvchi o`zidan ortiqcha kuch sarflamagan holda, qisqa vaqt ichida o`z bilimlarini o`quvchilarga yetkazib berish, ularda ma`lum bir mavzu yuzasidan bilim va malaka hosil qilish, shuningdek o`qituvchilarni darsni qiziqarli va sifatli olib borishi o`quv xonalari zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan bo`lishi o`quvchi va talabalarni dars o`rganish jarayonini ancha samarali qilishga yordam beradi. Dars davomida o`qituvchi qirq yoki sakson minut vaqtini an`anaviy usulda tushuntirib o`tishdan ko`ra, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda darsni qisqa va lo`nda qilib tushuntirish ancha yaxshiroq.

Zamonaviy o`qituvchi o`z fanini chuqur bilishi bilan birga, axborot texnologiyalaridan xabardor bo`lishi, internet, kompyuterdan foydalana olishi lozim. Bunga qo`shimcha ravishda darslarni zerikarli o`tmasligi uchun multimedia vositalari, ko`rgazmali qurollar orqali o`tish ta`lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Darslar davomida internet orqali Ingliz tilida bir qator muammolarni hal qilish mumkin. Misol uchun tarmoq materiallaridan foydlangan holda o`qish, bilim va ko`nikmalarni shakllantirish, o`quvchilarni yozish qobiliyatini oshirish, o`rganuvchini so`z boyligini ko`paytirish va eng asosiysi o`quvchilarni Ingliz tiliga bo`lgan ishtiyoqini oshirish imkonini beradi. Shuningdek o`quvchi va talabalar internetda o`tkaziladigan turli xil testlar, viktorinalar, olimpiadalarda ishtirok etishlari, boshqa chet mamlakatlardagi o`z tengdoshlari bilan fikr almashishlari, turli xil konferensiyalarda qatnashish imkoniyatini beradi. Bu o`quvchilarga yangi do`stlar va ijobiy ma`nodagi "raqobatdosh"lar ortirishga, yangi fikrlar va g`oyalar paydo bo`lishiga va ta`limga bo`lgan rag`bat uyg`otishga yordam beradi.

Har bir chet tili o`rgatiladigan darslarda zamonaviy texnologiyalar, kompyuter, CD, DVD, Smart TV ,, elektron doska kabi qurilmalarni qo`llash ta`lim sifatini oshirish bilan bir qatorda ulg`ayib kelayotgan yosh avlodda tilni tezroq o`rganish imkonini beradi, chunki har qanday o`rganuvchining yoshiga dunyoqarashiga ,qiziqishlariga ,darsni o`zlashtirishiga ko`ra tayyorlangan o`quv materiallari o`z foydasini beradi. Agarda biz yuqori sinf o`quvchilariga dars jarayonida sodda materiallardan, bunga zid ravishda boshlang`ich sinflarda esa birmuncha tushunish qiyin bo`lgan so`zlardan iborat materiallardan foydalansak, ularda fanga bo`lgan ishtiyoq asta-sekin pasaya boshlaydi. Shuningdek dars davomida shunchaki texnologiyalardan foydalanish emas , balki ularni o`z o`rnida ham qo`llay bilish kerak. Masalan, tinglab tushunish darslarida audio materiallarning ham qo`yib eshittirishni ham o`ziga yarasha qonun-qoidalari bor. Bunday asosiy maqsad o`quvchi eshitayotgan audio materialni tushunib olishi va qiynalmasdan tahlil qilishidir .Shu bilan birga so`zlashib va yozib o`rganishda ham texnologiyalardan foydalangan holda dars o`tish , va bu jarayonda multimedialardan foydalanib ,videoroliklar namoyish qilish va muhokama qilish juda yaxshi usul hisoblanadi. Albatta yaxshi muhit ham o`qish sifatini oshirish imkonini beradi.

Chet tilini innovatsion texnologiyalardan foydalanib o`rgatish va o`rganish eng samarali usullardan biridir. Bu jarayonda jumladan:- kompyuterdan foydalanganda o`quvchi chet tilidagi videoroliklarni, dialoglarni, kino yoki yoki multfilmlarni ham ko`rishi ,ham eshinishi mumkin; chet tilidagi radioeshittirishlar va televideniya dasturlarni eshinish va tomosha qilish mumkin; ancha an`anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va kassetalardan, CD pleyerlardan foydalanish mumkin. [3] Bunga qo`shimcha ravishda ingliz tilida filmlarni tomosha qilish nafaqat chet tili nutqini tushunishni o`rgatibgina qolmay , balki qiziqarki o`yin-kulguga aylanishi mumkin. Bu talaffuzni yaxshiroq ifodalshga yordam beradi. bunday amaliyotdan keyin har qanday chet ellik bilan bemalol suhbat qurish mumkin. Yaqin yillarda ingliz tilidagi kompyuter o`yinlarining soni ortib , mashxur bo`lib kelmoqda. Bu nafaqat bolalarni balki kattalarni ham ingliz tilini o`rganishga juda katta qiziqish uyg`otmoqda.

Xulosa qilib aytganda ,ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo`llash natijasida o`quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, dars davomida tez va to`g`ri javob berish ko`nikmasini shakllantiradi. Bundan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, darslarimizni yanada boyitish, o`quvchilari til o`rganishga qiziqтира olish , ularning bilimlarini boyitishda zamonaviy texnologiyalarning o`rni beqiyosdir. Ularni to`g`ri va o`z o`rnida qo`llash bizning asosiy maqsadimiz.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ingliz tilini o`rgatishning samarali usullari”Muhiddinov N ,Narzikulov F, 2022-yil, [www.talimfidoyilari.uz](http://www.talimfidoyilari.uz)
2. Ingliz tilini o`qitishda texnologiyalardan foydalanish, Abdumuxtorov, ”Formation of psychology as interdisciplining sciensec ITALIA”
3. Ingliz tilini o`qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, Jumanova D